



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUN MANBALARI

*IIV Surxondaryo akademik litseyi**Huquqshunoslik fani o'qituvchi**Ko'chkinova Adolat Gulmurod qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqiy tizimning asosiy elementlaridan biri bo'lgan qonun manbalari tahlil qilinadi. Qonun manbai tushunchasi, uning huquqiy tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning turlari, ularning ierarxiyasi, xalqaro huquqning milliy huquq tizimidagi o'rni hamda Konstitutsiyaning ustuvorligi xususida ilmiy yondashuv asosida izohlar beriladi. Maqola O'zbekistonda amaldagi huquqiy manbalarni chuqur o'rganishga, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qonun manbai, normativ-huquqiy hujjat, Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi, xalqaro huquq, ierarxiya, qonunchilik tizimi, huquqiy asos, qonun ijodkorligi.

Huquqiy davlat barpo etishda qonun manbalarining aniqligi, tartibga solinganligi va tizimlashtirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'zining mustaqil huquqiy tizimini shakllantirdi. Ushbu tizimda qonun manbalari – huquq normalarini belgilovchi asosiy vosita sifatida o'z o'rniga ega.

Qonun manbai tushunchasi

Qonun manbai – bu huquq normalarini o'zida mujassam etgan, yuritilish uchun majburiy kuchga ega bo'lgan hujjat yoki vosita. Huquqiy manbalar insonlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishda, ularning huquq va majburiyatlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. **Qonun** (huquqda) – inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi. Qonun davlat oliy vakillik



organlarining eng yuqori kuchga ega bo'lgan hujjatidir. Qonun davlat huquq tizimining asosini tashkil qiladi, davlatning boshqa hamma organlarining normativ aktlariga nisbatan eng katta yuridik kuchga ega bo'ladi. Qonun uchun uni qabul qilishning alohida tartibi, bir necha bosqichdan iborat maxsus qonun chiqarish jarayoni xosdir. Bu bosqichlar qonunchilik tashabbusi, qonun loyihasining muhokama qilinishi, Qonunning qabul qilinishi va uning e'lon qilinishidan iborat. Qonunlar o'zida mujassamlashgan normalarning mohiyati bo'yicha konstitutsiyaviy to'g'ridan-to'g'ri konstitutsiya talablari asosida qabul qilinadigan (organik) va oddiy Qonunlarga bo'linadi. Oddiy Qonunlar, o'z navbatida, kodifikatsiya qilingan va joriy Qonunlarga bo'linadi. Federativ davlatlarda Qonunlar, shuningdek, federal va federatsiya sub'yektlari Qonunlariga ajratiladi. Qonunlarning alohida toifasini favqulodda Qonunlar tashkil etadi.

Normativlik Qonunning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi. Huquqiy hujjatlarning boshqa shakllari ham normativ bo'lishi mumkin, lekin ular Qonunchilik qat'iy kuchga ega bo'lmay, qisqa muddat amal qiladigan yoki huquqni muhofaza etuvchi bo'lishi mumkin. Qonunning normativligi uning bir xildagi qoidani barcha uchun norma, me'yor, mezon darajasiga ko'tarilishidadir. Qonunda mustahkamlangan qoida hamma o'xshash hollarda bir xildagi talab sifatida takror-takror amal qiladi. Qonunning normativligi unda ifodalangan davlat irodasining qat'iyligi, ustunligi va oliyligi bilan chambarchas bog'liqligidadir. Aynan shu irodaning imperativ (bo'ysundiruv-chi) mazmuni Qonun vositasi bilan umumiy yurish-turish va xulq-atvor mezonlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) asosiy qonun – [Konstitutsiya](#);
- 2) Konstitutsiyaviy qonun;
- 3) Qonun (kodekslar va joriy Qonunlar);
- 4) [Qoraqalpog'iston Respublikasining](#) Konstitutsiyasi va Qonunlari

Qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu hujjat davlat hokimiyatining tashkil



etilishini va boshqaruv mexanizmini belgilaydi, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy asoslari, siyosiy tizimini. insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlaydi. Konstitutsiya jamiyat huquqiy tizimining, butun qonunchilikning o'zagini, yuridik zaminini tashkil etadi. Joriy Qonunlarning barchasi konstitutsiya qoidalari va prinsiplari asosida hamda ularning ijrosi manfaati yo'lida chiqariladi.

Qonunlar quyidagi hollarda kuchga kiradi: rasman e'lon qilingandan 10 kun o'tgach; Qonunda yoki uni amalga kiritish to'g'risida maxsus hujjatda ko'rsatilgan vaqtdan boshlab. Qonun o'zida ko'rsatilgan muddat tugagan bo'lsa yoki bekor qilinishi natijasida (ijtimoiy munosabatlarning shu sohasini tartibga soluvchi yangi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan) o'z kuchini yo'qotadi.

Qonun zamonda amal qiladi. Buning ma'nosi shuki, ayrim Qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Ya'ni, Qonun e'lon qilinmasdan oldin bo'lgan ishlarga shu Qonun tatbiq etiladi. Jumladan, O'zbekistonda jinoyat va ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi Qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Qonun makonda ham amal qiladi. Buning ma'nosi Qonunlar mamlakatning barcha hududlarida amal qilishini biddiradi. Davlat hududiga quruqlik, ichki suvlar va hududiy dengiz havzalari, ushbu hududlar ustidagi havo bo'shlig'i va davlat chegarasi doirasidagi yer osti kiradi. Odatda, Qonunlar ushbu hududdagi barcha sub'yektlar, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir.

Qonunning oliy yuridik kuchga egaligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: Qonunni uni qabul qilgan oliy vakillik organidan boshqa hech kim o'zgartira olmaydi, bekor qila olmaydi yoki yangisini o'rnatmaydi; boshqa barcha normativ-huquqiy aktlar Qonunga qat'iy muvofiq holda qabul qilinadi va amalga oshiriladi; bironbir qonunosti normativ-huquqiy akt, ya'ni, qonunga asoslangan hujjat Qonunga zid bo'lsa, u Qonunga muvofiq holga keltiriladi yoki bekor qilinadi; Qonunni qabul qilgan organdan boshqa hech kim uni qo'shimcha tarzda tasdiqlashi va harakatdan to'xtatib qo'yishi mumkin emas.



O'zbekiston Respublikasining Qonunlarida yangilanayotgan ijtimoiy tuzumning, huquqiy davlat barpo etishning eng muhim prinsiplari, rivojlanish yo'nalishlari va dasturiy vazifalari o'z aksini topadi.

Huquq manbalari — huquqiy nor-malarning ifoda etilish shakllari. Huquqning birlamchi manbai xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari va qoidalari hisoblanadi. Bularga BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr) va boshqa kiradi.

Normativ-huquqiy hujjatlar huquqning asosiy manbalari qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasida nor-mativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O'zbekiston Respublikasining kon-stitutsiyaviy qonunlari; O'zbekiston Respublikasining qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning huquqiy hujjatlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Huquqning eng qadimiy manbalaridan biri huquqiy odatdir. Huquqiy odat uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan xulq-atvor qoidasi.

Huquqiy pretsedent ham huquq manbai hisoblanadi. Huquqiy pretsedent sud yoki ma'muriy organning yozma yoxud og'zaki qarori bo'lib, bu qaror kelgusida barcha shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi.

Normativ shartnomalar ham huquq manbai hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq mustaqil huquq sub'yektlari o'rtadida tuziladigan hamda ularning huquq va majburiyatlarini o'rnatadigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bitimlarga normativ shartnomalar deyiladi. Normativ shartnomalar ayniqsa xalqaro huquqda katta ahamiyatga ega. Normativ shartnomalar qatoriga kiruvchi xalqaro shartnomalar sub'yektlariga ko'ra — ikki tomonlama va ko'p tomonlama, xususiyatiga ko'ra —



norma o'rnatuvchi va ta'sis etuvchi shartnomalarga bo'linadi. Huquqning tarixiy rivojlanish davrida huquqiy aqida va g'oyalar huquqning manbai hisoblangan. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos Musulmon huquqlarning asosiy manbaini tashkil etadi.

3. Normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiyasi

O'zbekistonda huquqiy hujjatlar qat'iy ierarxik tartibga solingan:

Konstitutsiya

Konstitutsiyaviy qonunlar

Oliy Majlis qonunlari

Prezident farmonlari, qarorlari

Vazirlar Mahkamasi qarorlari

Idoraviy normativ hujjatlar

Mahalliy huquqiy hujjatlar

Bu ierarxiya asosida, past darajadagi hujjatlar yuqori darajadagi hujjatlarga zid bo'lmasligi kerak.

4. Xalqaro huquq manbalarining o'rni

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga ko'ra, agar xalqaro shartnoma milliy qonunga zid bo'lsa, xalqaro shartnoma qo'llaniladi. Bu norma xalqaro huquq prinsiplariga sodiqlikning ifodasidir.

5. Amaliy muammolar va takliflar

Bugungi kunda qonun manbalarining ko'pligi, ularning ba'zan zid kelishi, huquqni qo'llashda muammolarga olib kelmoqda. Shu sababli:

Normativ-huquqiy hujjatlar yagona elektron bazasining takomillashtirilishi;

Qonun ijodkorligida xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlardan foydalanish;

Qonun hujjatlarining soddaligi va tushunarli bo'lishi ta'minlanishi zarur.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimi, ayniqsa qonun manbalari sohasi, izchil rivojlanmoqda. Huquqiy ong va madaniyatning yuksalishi, qonun hujjatlarining sifatli ishlab chiqilishi fuqarolik jamiyati barpo etishda muhim rol



o‘ynaydi. Qonun manbalari tartibga solingan va tizimli bo‘lsa, jamiyatda qonun ustuvorligi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi tahriri.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, 2000-yil.

Quronov Q., “Huquqshunoslik asoslari”, Toshkent, 2022.

Jalilov S., “O‘zbekiston Respublikasida huquqiy tizim asoslari”, Toshkent, 2021.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi rasmiy veb-sayti – www.parliament.gov.uz

Adliya vazirligi normativ hujjatlar portali – www.lex.uz